


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




Mamlakatimizda qulay

ishbilalmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

36 276



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 435



Oilaviy korxona

5 206



Xususiy korxona

43




Aksiyadorlik jamiyat

591




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat, birlik



xususiy korxona, birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo‘lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to‘lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo‘yicha, o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o‘z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(yanvar-mart oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2024-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi, %)




2024-yilning yanvar-mart oylarida 1 063 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 865 ta, oilaviy korxonalar 121 ta, xususiy korxonalar 18 ta, muassasalar 41 ta va boshqalar 18 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi
(1-aprel holatiga ko'ra)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




- Ishlab chiqarish sanoati
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 5 143 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,9 % ni tashlil etdi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 17,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 77,3 % ni (jami sanoatdagi ulushi 95,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 98,3 % ni (jami sanoatdagi ulushi 2,2 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 90,1 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 78,4 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) tashki etgan.

Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 994 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 86,8 % ni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

fuarolik obyektlarini qurishda – o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan 99,0 % ni (jami qurilishdagi ulushi 14,2 %);

bino va inshootlar qurishda o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan – 85,2 % ni (jami qurilishdagi ulushi 55,6 %);

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida – 84,7 % ni (jami qurilishdagi ulushi 30,2 %) tashki

Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)


2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 9 073 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 93,5 % ni tashkil etdi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan – 91,4 % ni (jami savdodagi ulushi 62,9 %);

avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlashda o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan – 89,4 % ni (jami savdodagi ulushi 6,9 %);

avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan – 99,3 % ni (jami savdodagi ulushi 30,2 %) tashkil etadi.



■ Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

**Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)**

- Sog‘lijni saqlash sohasidagi faoliyat

933



- Yashash uchun joy bilan ta’milangan holda parvarishlash

23



- Yashash uchun joy bilan ta’milnagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

16



**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)**



75

Yashash bo‘yicha xizmatlar



1 204

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar


2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 279 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 96,5 % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar – 97,2 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,1 %);

yashash bo‘yicha xizmatlar – 87,2 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,9 %) tashkil etadi.


Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 423 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 94,8 % ni tashkil etdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar sonidan nashriyotchilik faoliyatida o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan – 91,8 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,7 %), kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan – 84,3 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 25,3 %), aloqa yo‘nalishida o‘tgan yilniig mos davriga nisbatan – 101,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 50,1 %), axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi faoliyatda o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan 97,7 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 9,9 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan – 93,3 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,8 %), dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuva radioeshittirishda o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan – 125,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,2 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 3 435 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 162 taga yoki 4,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 449 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 158 taga yoki 9,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2024-yilning yanvar-mart oylarida 121 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 36 276 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 109 taga yoki 6,2 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 958 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 791 taga yoki 12,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2024-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 865 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 97 taga yoki 10,1 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Andijon viloyatidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra 495 tani tashkil etib, ulardan 323 tasi yoki 65,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 41 taga yoki 9,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 23 ta chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**

	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Jami	316	359	376	325	323
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26	24	23	25	20
Sanoat	184	202	205	169	156
Qurilish	20	22	29	21	21
Savdo	37	51	58	56	68
Tashish va saqlash	2	3	4	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9	10	9	10	12
Axborot va aloqa	5	4	5	2	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	5	5	3	3
Boshqa turlar	28	38	38	35	35

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 29 105 tani tashkil etdi.


Ularning hududlar kesimda taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: Andijon shahrida – 26,5 foiz, Asaka – 8,7 foiz, Andijon – 8,0 foiz, Shahrixon – 6,9 foiz, Baliqchi – 5,7 foiz, Oltinko‘l – 5,3 foiz, Izboskan – 5,0 foiz, Marhamat – 4,8 foiz, Qo‘rg‘ontepa – 4,8 foiz hamda Jalaquduq – 4,7 foiz tumanlarida tashkil etadi.

**Hududlar kesimida chet el investitsiyalari ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Viloyat bo'yicha:	323	144	179
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	120	45	75
Xonobod sh.	13	6	7
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	20	12	8
Asaka	18	10	8
Baliqchi	10	6	4
Bo'ston	7	4	3
Buloqboshi	17	9	8
Jalaquduq	15	4	11
Izboskan	17	6	11
Ulug'nor	5	2	3
Marhamat	15	8	7
Oltinko'l	22	8	14
Paxtaobod	5	3	2
Xo'jaobod	10	4	6
Shahrixon	22	13	9
Qo'rg'ontep'a	7	4	3

Yetakchi o'rinni 78 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 22,6 foiz), Turkiya (ulushi 15,2 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 14,6 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 9,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimida soni**
(2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 28,7 %, Andijon 8,2 %, Asaka 7,5 %, Shahrixon 6,7 %, Baliqchi 5,6 %, Oltinko‘l 5,2 %, Izboskan 5,2 %, Marhamat 5,0 %, Jalaquduq 4,6 %, Xo‘jaobod 4,6 %, Paxtaobod 4,5 %, Qo‘rg‘ontepa 4,0 %, Buloqboshi 3,1 %, Bo‘ston 2,7 %, Ulug‘nor 2,6 % tumanlari va Xonobod shahri 1,8 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)**




O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu, ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirdorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, chet el investitsiyasilarini ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar 323 ta bo'lib, shundan 144 tasi qo'shma va 179 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2024-yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



2024-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (17,4 %), Andijon (14,0 %), Buloqboshi (13,2 %), Andijon shahri (10,7 %), Qo'rg'ontep'a (10,7 %), Asaka (9,1 %), Shahrixon (8,3 %), Izboskan (5,0 %), Oltinko'l (5,0 %), Baliqchi (1,7 %), Xonobod shahri (1,7 %), Jalaquduq (0,8 %), Ulug'nor (0,8 %), Marhamat (0,8 %) hamda Xo'jaobod (0,8 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2024-yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro‘yxatga olingan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirdorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.